

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№2

2026
fevral



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 359 sahifa.
2026-yil, fevral

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR BANKLARIDA RISK-MENEJMENTNING TASHKILIY MODELLARI.....	26
Madaminov Bekzod Allayarovich	
“HUDUDGAZTA’MINOT” AJ DA AMALGA OSHIRILGAN LOYIHALAR SAMARASI	32
Shukurillaev Jahongir Botir o’g’li	
HARBIY XIZMATCHI AYOLLARNING MAXSUS KIYIM SIFATIGA QO’YILADIGAN DASTLABKI TALABLARNI SHAKLLANTIRISH	37
Abduraxmanova N.D., Mirtolipova N.X., Nasirullayeva G.S.	
СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ПРОБЛЕМЫ НЕСПЕЦИФИЧЕСКОГО ЯЗВЕННОГО КОЛИТА У ДЕТЕЙ	42
Закирова Бахора Исламовна, Каримов Достон Рустам угли	
ОЦЕНКА ВОЗДЕЙСТВИЯ ФИСКАЛЬНЫХ И КРЕДИТНЫХ ИНСТРУМЕНТОВ НА РЫНКИ ВЫСОКОЛИКВИДНОЙ ПРОДУКЦИИ И ЕСТЕСТВЕННЫХ МОНОПОЛИЙ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.....	48
Бекзод Умматов	
ТРАНСФОРМАЦИЯ СИСТЕМ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ ЭКОНОМИКО-СТАТИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА.....	55
Вахидов Азизжон Саиджонович	
SUG’URTA FAOLIYATIDAGI MOLIVAVIY RISKLAR: BAHOLASH VA MINIMALLASHTIRISH STRATEGIYALARI	58
Xalikulova Shirin Utkir qizi	
“ANDIJONDONMAHSULOT” AJ MISOLIDA XARAJATLARNING STRATEGIK BOSHQARUV HISOBI: AMALIY TAHLIL VA TAKOMILLASHTIRISH TAVSIYALARI	62
Xayitboyeva Laylo Oybekovna	
XORIJIIY MAMLAKATLARNING NORASMIY IQTISODIYOT DARAJASINI PASAYTIRISHDAGI TAJIRIBASI	66
Alimardonov G’ayratjon Nuraliyevich	
XO’JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA BARQARORLIK HISOBOTLARI AUDITINI SHAKLLANTIRISH	72
Xolikov Ravshan Anvar o’g’li	
PUL - KREDIT SIYOSATINING TRANSMISSION MEXANIZMINI RIVOJLANTIRISH	76
Obidova Zilola Ikromjon qizi	
HOMILADORLIK DAVRIDA AYOLLARDA UCHRAYDIGAN GESTOZLI KATARAL GINGIVITNI KOMPLEKS DAVOLASHNI OPTIMALLASHTIRISH	81
Nomurodova Farangiz Lazizovna	
AGRAR KORXONALARDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHDA INVESTITSIYA MEXANIZMLARINING IQTISODIY SAMARADORLIGI VA RIVOJLANTIRISH YO’NALISHLARI	87
Egamberdiyev Abdujabbor Xusanovich	
YOSHLAR TADBIRKORLIGI VA KICHIK BIZNES IQTISODIYOTINI TA’MINLASHDA INFRATUZILMALARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	92
Mirzatov Baxtiyor Toxirovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATINI BAHOLASH METODOLOGIYASINING MAZMUNI VA TAMOIYILLARI	96
Mavrulov Ravshan Nematjonovich	



УПРАВЛЕНИЕ ИНФОРМАЦИОННЫМИ КОММУНИКАЦИЯМИ В ПРОЕКТАХ	101
Носирова Гулираъно Абдулазиз кизи	
DAVLAT BUDJETI JARAYONIDA MONITORING VA MOLIVAVIY NAZORATNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	107
Yax'yayeva Dilfuza Bagdatovna	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA KICHIK KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	111
Axmedov Sanjar Temur o'g'li	
RAQAMLI MOLIVA TEXNOLOGIYALARI EVOLYUTSIYASINING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI VA YUZAGA KELISHI MUMKIN BO'LGAN XATARLAR TAHLILI	117
Ko'chimov Jahongir Shuxrat o'g'li	
GAZ VA GAZ KONDENSATINI YIG'ISH VA TAYYORLASH TIZIMLARI UCHUN ZAMONAVIY LOYIHALASH USULLARI TAHLILI	123
Abdirazakov Akmal Ibragimovich Namozov Og'abek Maxmud o'g'li	
AGILE PROJECT MANAGEMENT IN THE DIGITAL ERA: STRATEGIES, FRAMEWORKS, AND BEST PRACTICES FOR SUCCESS	128
Utkirova Maftuna Murodjon qizi	
O'ZBEKISTON EKSPORTYOR KORXONALARINING YANGI BOZORLARGA CHIQUISHIDA FAOL MARKETING VOSITALARIDAN FOYDALANISH HOLATI VA MUAMMOLARI	134
Baqoyev Sunnatillo Burxon o'g'li	
TADBIRKORLIK FAOLIYATIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	139
Salaydinov Shodiyor Nizom o'g'li	
TO'QIMACHILIK SANOATIDA INVESTITSION LOYIHALARNI BOSHQARISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY JIHATLARI	144
Qurbonov Jasurbek Pozilovich	
OPTIMIZATION OF ROADSIDE AUTO CAMPING SITES (REST AREAS) ON HIGHWAYS USING ARTIFICIAL INTELLIGENCE: INFRASTRUCTURE GAPS AND CORRIDOR-BASED EVIDENCE FROM UZBEKISTAN	150
Akramov Akbarjon Akmal ugli	
QURILISH KORXONALARIDA INNOVATSION MARKETING YONDASHUVLARINING AHAMIYATI	156
Aminov Abbas Mo'minboy o'g'li	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA AHOLI ISH BILAN BANDLIGI SAMARADORLIGINI IFODALOVCHI KO'RSATKICHLAR	160
Abdusaidov Akmal Abduvaliyevich	
MINTAQADA XUSUSIY TIBBIYOT MUASSASALARIDA MARKETING STRATEGIYASI	165
Yakubov Temur G'anibekovich	
AHOLI DEMOGRAFIK JARAYONLARINI IFODALOVCHI STATISTIK KO'RSATKICHLAR TIZIMI	169
Siroj Zarina Rustambekovna	
AXBOROT MAHSULOTLARI BIZNESINING YAIM VA BANDLIKKA TA'SIRI: EKONOMETRIK TAHLIL	176
Abdullayev Abdulla Fayzulla o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMINI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI	181
Ziyodullayev Qahramon	
ЭНЕРГОЭФФЕКТИВНОСТЬ: ПОЛЬЗА ДЛЯ ЭКОНОМИКИ И ЭКОЛОГИИ	185
Хамдамова Гавхар Абсаматовна	
O'ZBEKISTONDA EKSPORTNI RAG'BATLANTIRISHNING MOLIVAVIY VOSITALARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI	191
Mamatov Baxodir Quldoshovich	



KO'P QIRRALI VALLARNING SHAKLLANTIRISH METODLARI VA USULLARINI TAHLIL QILISH	197
<i>Xasanov Bobirmirzo Maxmudali o'g'li, Valixonov Dostonbek Azim o'g'li, Alibekov Rasulbek Qanotbek o'g'li</i>	
MINTAQA SANOATINING TARKIBIY TRANSFORMATSIYASI VA UNNING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRINI EKONOMETRIK MODELASHTIRISH	205
<i>Abdinazarov Xusan Shaymanovich</i>	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA SUG'URTA BOZORINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH	209
<i>Nomozova Qumri Isoyevna</i>	
XALQARO STANDARTLAR TALABLARI ASOSIDA AUDITORLIK TEKSHIRUVINI TASHKIL ETISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	216
<i>Akromov Shohrux Shuhrat o'g'li</i>	
QASHQADARYO VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHNI TARTIBGA SOLISH TIZIMI	221
<i>Achilova Firuza Kurbanovna</i>	
BANK MENEJMENTIDA INKLYUZIV MOLIYALASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI, TAMOIYILLARI VA STRATEGIK AHAMIYATI	225
<i>Rajabov Oybek Panjievich</i>	
MINTAQADA OLIY TA'LIM TIZIMINING ISHSIZLIK DARAJASIGA TA'SIRINI EKONOMETRIK MODELASHTIRISH	229
<i>Rustamov Jasurbek Ravshanbek o'g'li</i>	
MAISHIY XIZMATLAR SOHASIDA INNOVATSION KLASSTER MODELINI JORIY ETISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	235
<i>Normurodova Zebo Eshmaxmatovna</i>	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA INVESTITSiya FAOLIYATINI BOSHQARISH	240
<i>Xatamov Nurbek Ochilidievich, Sharifi Abdul Fatah</i>	
MOLIYAVIY REJALASHTIRISHNING AMALDAGI MUAMMOLARI VA ULARNI YECHIMI YUZASIDAN TAKLIFLAR	245
<i>Pardayev Jamshid Muzaffarovich</i>	
TIJORAT BANKLARI LIKVIDLIK RISKLARINI BAHOLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	251
<i>Sulaymanov Samandarboy Adhambek o'g'li</i>	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA RISKLARNI BOSHQARISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH	257
<i>Karimov Shohruh Boydulla o'g'li</i>	
"O'ZBEKISTON TEMIR YO'LLARI" AKSIYADORLIK JAMIYATINING HISOBOTLARINI XALQARO STANDARTLARGA TRANSFORMATSIYA QILISH	262
<i>Astanov Zafar Murodillayevich</i>	
QARAMA-QARSHI AYLANUVCHI IKKI ROTORLI SHAMOL TURBINASINING MATEMATIK MODEL	266
<i>Pirmatov Nurali Berdiyevich, Bekishev Allabergen Yergashevich, Saodullayev Abror Saypullayevich, Qurbonov Najmiddin Abduxamidovich</i>	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA KICHIK VA O'RTA BIZNESNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING INSTITUTIONAL VA INVESTITSION MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	272
<i>Norboyev Sarvar Azodovich</i>	
O'ZBEKISTONDA TRANSPORT SOHASIDA FAOLIYAT YURITAYOTGAN TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING IQTISODIY AHAMIYATI	277
<i>Jaloliddinov Anvar Jaloliddin o'g'li</i>	
ANALYSIS OF UZBEKISTAN'S MAIN ECONOMIC INDICATORS AND GDP GROWTH	283
<i>B.Beknazarov</i>	



SOTISH JARAYONIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR VA MARKETING TADQIQOTLARINING INTEGRATSIYASI	288
Abdualilova Laylo Tohtasinovna	
ПРИМЕНЕНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В АУДИТЕ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ: ГЛОБАЛЬНЫЙ И УЗБЕКСКИЙ КОНТЕКСТ	294
Мегноров Алмардон Абдирахмонович	
RISK MANAGEMENT STRATEGIES IN UNCERTAIN ECONOMIC ENVIRONMENTS: A GLOBAL COMPARATIVE STUDY	302
Nigmatova Malika	
OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MOLIVAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHNING NAZARIY ASOSLARI.....	307
Hamrayev Maqsudjon Saidaxmadovich	
BARQAROR RIVOJLANISHNI TA'MINLASHDA AHOLI BANDLIGINI OSHIRISH MASALALARI	311
Mamajonova Gulbaxor Toxirjon qizi	
АВТОМАТИЗАЦИЯ АУДИТОРСКИХ ПРОЦЕДУР НА ОСНОВЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ: ВЛИЯНИЕ НА КАЧЕСТВО АУДИТОРСКИХ ЗАКЛЮЧЕНИЙ	316
Киличева Ф.Б.	
MAISHIY TEXNIKA EKSPORTIDA YASHIL IQTISODIY SAMARADORLIKNI BAHOLASHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	320
Kushmanova Mahbuba	
GAZ TA'MINOTIDA YO'QOTISHLARNI KAMAYTIRISHNING IQTISODIY ASOSLARI	324
Xamidov Xayriddin Faxritdinovich	
DAVLAT AKTIVLARINI XUSUSIYLASHTIRISHNING MINTAQA IQTISODIY RIVOJLANISHIGA TA'SIRINI BAHOLASH (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA).....	329
Sharapov Farrux Shomuratovich	
КРИТЕРИИ ОТБРАКОВКИ ЭКСТРУЗИОННЫХ АЛЮМИНИЕВЫХ ПРОФИЛЕЙ ГРУППЫ АЛМГСІ ПО МАКРОСТРУКТУРНЫМ ПРИЗНАКАМ В ПРОИЗВОДСТВЕННЫХ УСЛОВИЯХ	333
Ибрахимов Фаррухжон Фарходович	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA DEBITORLIK QARZLARI VA FAKTORING OPERATSIYALARI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH	336
G'oziyeva Mokhira Rustamovna	
KULTIVATOR YUMSHATKICH PANJALARI O'TMASLANISH DARAJASINING ISH KO'RSATKICHLARIGA TA'SIRI	345
Quvondiqov Yoqub Tursunbaevich, Nuraliyev To'liq Alimardanovich	
SANOAT KORXONALARINI BOSHQARISHDA INNOVATSION STRATEGIYANI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA XORIJIY TAJRIBALAR	352
To'g'onov Ibroximxo'ja	



SANOAT KORXONALARINI BOSHQARISHDA INNOVATSION STRATEGIYANI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA XORIJIY TAJRIBALAR

To'g'onov Ibroximxo'ja

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
mustaqil izlanuvchi

E-mail: togonovibroximxoja8@gmail.com

Annotatsiya. Sanoat korxonalarini zamonaviy sharoitda samarali boshqarish bevosita innovatsion fikrlash va uzoq muddatli strategik yondashuv bilan bog'liq. Mazkur tadqiqotda sanoat boshqaruvi tizimida innovatsion strategiyaning mazmuni, uni shakllantirish omillari hamda amaliy natijalari xorijiy tajriba misolida tahlil qilinadi. Rivojlangan mamlakatlarda qo'llanilayotgan boshqaruv modellari, ilmiy ishlanmalarni ishlab chiqarish jarayoniga integratsiya qilish mexanizmlari hamda texnologik yangilanish siyosati o'rganildi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, innovatsion strategiya nafaqat yangi mahsulotlar yaratishga, balki boshqaruv jarayonlarini qayta tashkil etishga, resurslardan oqilona foydalanishga va bozor o'zgarishlariga tez moslashishga ham xizmat qiladi. Maqolada milliy sanoat korxonalarida ushbu tajribani qo'llash bo'yicha mualliflik yondashuvi taklif etiladi.

Kalit so'zlar: innovatsion strategiya, sanoat korxonasi, texnologik rivojlanish, boshqaruv samaradorligi, xalqaro amaliyot, strategik transformatsiya, raqobat ustunligi.

Abstract. The article examines the process of developing innovative strategies within the management system of industrial enterprises under conditions of increasing global competition. The research is based on an analysis of foreign practices related to industrial modernization, the integration of research outcomes into production, and the transformation of managerial approaches. It is argued that an innovative strategy serves not only as a tool for technological advancement but also as a driver of structural and organizational change within enterprises. The author proposes an adaptive framework for applying foreign experience to national industrial development.

Keywords: innovative strategy, industrial enterprise, technological advancement, managerial transformation, international practice, competitiveness.

Аннотация. В статье анализируются особенности формирования инновационной стратегии в системе управления промышленными предприятиями в условиях усиливающейся глобальной конкуренции. Исследование основано на изучении зарубежной практики модернизации промышленного сектора, внедрения научных разработок и трансформации управленческих подходов. Обосновано, что инновационная стратегия выступает не только инструментом технологического обновления, но и фактором институциональных изменений внутри предприятия. Автор предлагает адаптационную модель применения зарубежного опыта с учётом национальных экономических условий.

Ключевые слова: инновационная стратегия, промышленное предприятие, технологическое обновление, управленческая трансформация, международная практика, конкурентоспособность.

KIRISH

Bugungi globallashuv va keskin raqobat sharoitida sanoat korxonalarining barqaror faoliyat yuritishi faqat an'anaviy boshqaruv uslublari bilan cheklanib qolmaydi. Ishlab chiqarish jarayonlarining murakkablashuvi, texnologik yangilanishlar sur'atining ortishi hamda bozor talablarining o'zgaruvchanligi korxonalardan yangicha fikrlash va strategik moslashuvchanlikni talab etmoqda. Ayniqsa, sanoat sohasida innovatsion yondashuvni



boshqaruv tizimiga chuqur integratsiya qilmasdan turib, uzoq muddatli raqobat ustunligiga erishish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Zamonaviy iqtisodiy muhitda innovatsion strategiya nafaqat yangi mahsulot yoki texnologiyalarni yaratish, balki boshqaruv jarayonlarini takomillashtirish, resurslardan samarali foydalanish va ichki tashkiliy muvofiqlikni ta'minlash bilan ham bevosita bog'liqdir. Shu nuqtayi nazardan, sanoat korxonalarini boshqarishda innovatsion strategiyani ishlab chiqish va uni amaliyotga tatbiq etish masalasi dolzarb ilmiy-amaliy vazifalardan biri hisoblanadi.

Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, sanoat korxonalarining muvaffaqiyati ko'p jihatdan ilmiy-tadqiqot faoliyatini ishlab chiqarish bilan uyg'unlashtirish, raqamli texnologiyalardan keng foydalanish hamda strategik rejalashtirish jarayonlarini tizimli tashkil etishga bog'liq. Bunday yondashuv sanoat subyektlariga nafaqat ichki samaradorlikni oshirish, balki tashqi bozorlarda barqaror va mustahkam pozitsiyalarni egallash imkonini beradi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi sanoat korxonalarini boshqarishda innovatsion strategiyani rivojlantirishning nazariy asoslarini yoritish hamda xorijiy tajriba misolida samarali boshqaruv mexanizmlarini tahlil qilishdan iborat. Shuningdek, maqolada ilg'or amaliyot elementlarini milliy sharoitga moslashtirish imkoniyatlari yuzasidan mualliflik yondashuvlari bayon etiladi.

Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, qiyosiy yondashuv va umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Olingan natijalar sanoat korxonalarida innovatsion boshqaruvni yanada takomillashtirishga xizmat qilishi mumkin.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

XXI asr sanoat taraqqiyoti innovatsiyalarga asoslangan raqobat muhiti bilan tavsiflanadi. Bugungi globallashuv sharoitida sanoat korxonalarining barqaror rivojlanishi ishlab chiqarish hajmi yoki tabiiy resurslarga emas, balki ularning innovatsion salohiyati va strategik boshqaruv tizimiga ko'proq bog'liq bo'lib bormoqda. Innovatsiya iqtisodiy o'sishning asosiy omili sifatida ilk bor J. Shumpeter tomonidan ilmiy asoslab berilgan bo'lib, u iqtisodiy rivojlanish yangi kombinatsiyalar — yangi mahsulot, yangi texnologiya yoki yangi bozor shakllarini yaratish orqali amalga oshirishini ta'kidlagan [1].

Zamonaviy sharoitda sanoat korxonalarini boshqarishda innovatsion strategiyani shakllantirish raqobat ustunligini ta'minlashning muhim vositasiga aylandi. M. Porter (1985) o'zining raqobat ustunligi nazariyasida korxonalarning uzoq muddatli muvaffaqiyati ularning ichki imkoniyatlari va tashqi muhit o'rtasidagi strategik muvozanatga bog'liqligini asoslab bergan. Shu jihatdan, innovatsion strategiya sanoat korxonasining bozor pozitsiyasini mustahkamlash va qo'shimcha qiymat yaratish mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi [2].

Bundan tashqari, dinamik imkoniyatlar konsepsiyasiga ko'ra, korxonaning tez o'zgaruvchan iqtisodiy muhitga moslashish va yangi imkoniyatlarni o'zlashtirish qobiliyati uning uzoq muddatli samaradorligini belgilaydi [3]. Sanoat sohasida bu holat innovatsion faoliyatni strategik boshqaruv tizimiga integratsiya qilish zaruratini yuzaga keltiradi. OECD tomonidan ishlab chiqilgan "Oslo Manual"da ham innovatsiyalarni samarali boshqarish institutsional va tizimli yondashuvni talab qilishi alohida qayd etilgan [4].

Muallif fikricha, sanoat korxonalarida innovatsion strategiyani rivojlantirish faqat texnologik yangilanish bilan cheklanmasligi lozim. Bu jarayon tashkiliy tuzilmani takomillashtirish, boshqaruv madaniyatini modernizatsiya qilish va raqamli transformatsiya jarayonlarini strategik rejalashtirish bilan uzviy bog'liq bo'lgan kompleks tizim sifatida namoyon bo'ladi. P. Drucker (1985) ta'kidlaganidek, innovatsiya tasodifiy hodisa emas, balki tizimli va izchil boshqaruv natijasidir [5].

Shu bois, mazkur tadqiqot sanoat korxonalarini boshqarishda innovatsion strategiyaning nazariy asoslarini tahlil qilish hamda xorijiy tajriba asosida uning samarali mexanizmlarini o'rganishga qaratilgan. Tadqiqot natijalari sanoat korxonalarida strategik boshqaruvni takomillashtirish va innovatsion rivojlanishni jadallashtirishga xizmat qilishi mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot sanoat korxonalarini boshqarishda innovatsion strategiyani rivojlantirish masalasini o'rganishga qaratilgan bo'lib, unda sifat va miqdoriy yondashuv elementlari uyg'unlashtirildi. Tadqiqotning nazariy asosini innovatsion rivojlanish, raqobat ustunligi va dinamik imkoniyatlar konsepsiyalari tashkil etadi.

Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, qiyosiy (komparativ) yondashuv hamda umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganishda ikkilamchi ma'lumotlar — xalqaro tashkilotlar hisobotlari, ilmiy maqolalar va statistik manbalar tahlil qilindi. Shuningdek, innovatsion strategiyani sanoat korxonalarida joriy etish mexanizmlarini aniqlashda mantiqiy tahlil va konseptual modelashtirish usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Sanoat korxonalarini boshqarishda innovatsion strategiyani rivojlantirish masalasi global raqobat sharoitida muhim strategik ahamiyat kasb etmoqda. Xalqaro statistik ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, innovatsiyaga yo'naltiriladigan investitsiyalar va sanoat samaradorligi o'rtasida to'g'ridan to'g'ri bog'liqlik mavjud.

Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilda dunyo yalpi ichki mahsulotida sanoat (qurilish bilan birga) ulushi o'rtacha 26–27 % ni tashkil etgan (World Bank, 2023-yil). Shu bilan birga, innovatsion faolligi yuqori bo'lgan davlatlarda sanoatning texnologik qo'shilgan qiymati ancha yuqori darajada shakllanmoqda. Masalan, Germaniyada ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari (R&D)ga sarflanadigan xarajatlar YAIMga nisbatan 3,1 % ni tashkil etgan bo'lib, bu ko'rsatkich sanoat eksportining yuqori texnologiyali segmenti ulushi 15 % dan oshishiga xizmat qilgan (OECD, 2023-yil). Janubiy Koreyada esa R&D xarajatlari YAIMning 4,9 % iga yetgan va bu mamlakatni innovatsion faollik bo'yicha yetakchi davlatlar qatoriga olib chiqqan [6].

Butunjahon intellektual mulk tashkiloti (WIPO) tomonidan e'lon qilingan 2023-yilgi Global Innovation Index ma'lumotlariga ko'ra, innovatsion ekotizimi rivojlangan mamlakatlarda sanoat korxonalarining raqobatbardoshlik darajasi yuqori bo'lib, texnologiya transferi va patent faolligi barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etmoqda (WIPO, 2023-yil) [7]. Jumladan, 2022-yilda jahonda xalqaro patent arizalari soni 278 mingdan oshgan bo'lib, ularning katta qismi sanoat va yuqori texnologiyali ishlab chiqarish sohasiga to'g'ri kelgan.

UNIDO hisobotlariga ko'ra, yuqori va o'rta texnologiyali ishlab chiqarish ulushi sanoat qo'shilgan qiymatining 45–50 % dan ortig'ini tashkil etgan davlatlarda mehnat unumdorligi an'anaviy tarmoqlarga nisbatan 2–3 baravar yuqori bo'lmoqda [8]. Bu holat innovatsion strategiyani izchil amalga oshirish sanoat samaradorligini oshirishda muhim omil ekanligini tasdiqlaydi.

Tahlil natijalari quyidagilarni ko'rsatadi:

- R&D xarajatlari yuqori bo'lgan davlatlarda sanoat mahsulotining qo'shilgan qiymati va eksport salohiyati yuqori darajada shakllanadi.
- Innovatsion strategiyani institutsional darajada qo'llab-quvvatlash (soliq imtiyozlari, davlat dasturlari, texnoparklar) sanoatni modernizatsiya qilish jarayonlarini jadallashtiradi.
- Raqamli transformatsiya jarayonlarini strategik boshqaruv tizimiga integratsiya qilish mehnat unumdorligini oshirish va xarajatlarni optimallashtirish imkonini beradi (1-jadval).


1-jadval. Innovatsion ko'rsatkichlar va sanoat samaradorligi (tanlangan davlatlar misolida, 2022–2023-yillar)¹

Davlat	R&D xarajatlari (% YAIM)	Yuqori texnologiyali eksport ulushi (%)	Patent arizalari (mingta, 2022-yil)	Sanoat qo'shilgan qiymati (% YAIM)
Germaniya	3,1 %	15 %	47	26 %
Janubiy Koreya	4,9 %	28 %	22	25 %
AQSh	3,5 %	19 %	59	18 %
Xitoy	2,4 %	30 %	70	28 %
O'zbekiston	0,3 %	2 %	0,4	29 %

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, R&D xarajatlari yuqori bo'lgan davlatlarda yuqori texnologiyali eksport ulushi va patent faolligi sezilarli darajada yuqori darajada shakllanmoqda. Masalan, Janubiy Koreya YAIMga nisbatan 4,9 % miqdorida R&D xarajatlari yo'naltirib, yuqori texnologiyali eksport ulushini 28 % ga yetkazgan. Xitoyda esa patent arizalari soni 70 mingdan oshgan bo'lib, bu sanoatning texnologik tarkibini izchil yangilash jarayonlari faollashganini ko'rsatadi [9].

O'zbekiston misolida sanoatning YAIMdagi ulushi nisbatan yuqori darajada shakllangan bo'lsa-da, innovatsion ko'rsatkichlar (R&D xarajatlari va yuqori texnologiyali eksport ulushi)ni yanada oshirish uchun salohiyat mavjudligi kuzatiladi. Bu holat sanoat korxonalarini boshqarishda innovatsion strategiyani yanada kuchaytirish va qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini rivojlantirish muhimligini ko'rsatadi (1-rasm).

1 Manba: muallif ishlanmasi.

1-rasm. Sanoat korxonalarida innovatsion strategiya modeli²

Mazkur rasm sanoat korxonalarida innovatsion strategiyani integratsiyalashtirgan boshqaruv modeli sifatida ifodalaydi. Model markazida innovatsion strategiya joylashgan bo'lib, u korxona boshqaruv tizimining asosiy muvofiqlashtiruvchi elementi sifatida namoyon bo'ladi.

Rasmda innovatsion strategiya uchta asosiy yo'nalish bilan o'zaro bog'langan:

1. Strategik rejalashtirish — innovatsion maqsadlarni korxonaning uzoq muddatli rivojlanish strategiyasiga integratsiya qilishni anglatadi. Ushbu bosqichda resurslarni taqsimlash, ustuvor yo'nalishlarni belgilash hamda risklarni boshqarish jarayonlari amalga oshiriladi.

2. Inson kapitalini boshqarish — innovatsion rivojlanishning muhim omili sifatida xodimlarning bilim va malakasini oshirish, kreativ fikrlashni rag'batlantirish hamda korporativ innovatsion madaniyatni shakllantirishni nazarda tutadi.

3. Texnologik modernizatsiya — ishlab chiqarish jarayonlarini raqamlashtirish, yangi texnologiyalarni joriy etish hamda Industry 4.0 elementlarini qo'llash orqali samaradorlikni oshirishga qaratilgan.

Mazkur yo'nalishlarning o'zaro uyg'unlashuvi natijasida raqobatbardoshlik va barqaror o'sish ta'minlanadi. Rasm innovatsion strategiyaning alohida tashabbus emas, balki sanoat korxonasining barcha boshqaruv darajalarini birlashtiruvchi tizimli mexanizm ekanligini ko'rsatadi (2-jadval).

2-jadval. 2022–2025-yillar uchun global innovatsiya statistikasi³

Ko'rsatkichlar	2022-yil	2023-yil	2024-yil	2025-yil (proyeksiya)
Jahon R&D o'sish sur'ati (%)	~4,7 %	~4,4 %	~2,9 %	~2,3 %
Global R&D xarajatlari (trln AQSh dollari)	~2,78	~2,78	~2,87	–
Biznes R&D o'sish sur'ati (%)	–	~4,2 %	~3,0 %	~2,3 %
GII bo'yicha innovatsiya investitsiyalari tendensiyasi	O'sish	O'sish sur'atining sekinlashuvi	Pastroq o'sish	Yanada pastroq o'sish
Eng yuqori innovatsion davlatlar (Top-5)	–	–	–	Shveysariya, Shvetsiya, AQSh, Janubiy Koreya, Singapur

Mazkur jadvalda 2022-2025-yillar davomida global miqyosda innovatsion rivojlanish tendensiyalari, xususan, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari (R&D)ga yo'naltirilgan investitsiyalar dinamikasi hamda Global Innovation Index (GII) ko'rsatkichlari aks ettirilgan [10].

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, 2022-yilda jahon R&D xarajatlari o'sish sur'ati nisbatan yuqori bo'lgan bo'lsa, 2023-2025-yillarda ushbu o'sish sur'atlari bosqichma-bosqich sekinlashgan. Shunga qaramay, umumiy hajm jihatidan global R&D investitsiyalari trillion dollarlik darajada saqlanib qolmoqda. Bu holat innovatsion faoliyat global iqtisodiyotda ustuvor yo'nalish sifatida barqaror ahamiyat kasb etayotganini ko'rsatadi.

² Manba: muallif ishlanmasi.

³ Manba: muallif ishlanmasi.

Shuningdek, jadvalda biznes sektori tomonidan amalga oshirilayotgan R&D investitsiyalarining roli alohida e'tiborga loyiq. Xususi sektor innovatsion jarayonlarning asosiy drayveriga aylanib, sanoat korxonalarining texnologik yangilanishida yetakchi o'rinni egallamoqda. Shu bilan birga, 2024-2025-yillarda o'sish sur'atlarining sekinlashuvi global iqtisodiy muhitdagi beqarorlik, investitsiya xatarlarining ortishi va moliyaviy cheklovlar bilan izohlanadi.

Global Innovation Index natijalari esa shuni ko'rsatadiki, innovatsion ekotizimi shakllangan va R&Dga yuqori ulush ajratayotgan davlatlar o'z pozitsiyalarini barqaror saqlab qolmoqda. Bu esa innovatsion strategiyani tizimli ravishda qo'llab-quvvatlash sanoatning uzoq muddatli raqobatbardoshligini ta'minlashini tasdiqlaydi.

Umuman olganda, jadval ma'lumotlari innovatsion investitsiyalar hajmi bilan sanoat samaradorligi o'rtasida bevosita bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi. R&D o'sish sur'atlarining sekinlashuvi sharoitida sanoat korxonalarini boshqarishda innovatsion strategiyani yanada samarali tashkil etish, resurslardan oqilona foydalanish va raqamli transformatsiyani jadallashtirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Mazkur tadqiqotda sanoat korxonalarini boshqarishda innovatsion strategiyani rivojlantirish bo'yicha quyidagi ilmiy yangiliklar asoslab berildi:

1. Innovatsion strategiyaning integratsiyalashgan boshqaruv modeli ishlab chiqildi.

Tadqiqotda innovatsion strategiya alohida yo'nalish sifatida emas, balki strategik rejalashtirish, inson kapitalini boshqarish va texnologik modernizatsiya jarayonlarini yagona tizimga birlashtiruvchi ko'p darajali boshqaruv mexanizmi sifatida talqin qilindi. Ushbu model sanoat korxonasida innovatsiyani operatsion emas, balki strategik darajaga ko'tarishni nazarda tutadi.

2. "Innovatsion barqarorlik indeksi" konseptual ko'rsatkichi taklif etildi.

Muallif tomonidan sanoat korxonasining innovatsion salohiyatini baholash uchun uch komponentli indikator tizimi (R&D intensivligi, texnologik yangilanish darajasi va bilimlar transferi samaradorligi) asosida yangi kompleks baholash yondashuvi ishlab chiqildi. Ushbu ko'rsatkich korxonaning uzoq muddatli raqobatbardoshligini prognoz qilish imkonini beradi.

3. Innovatsion strategiyani bosqichma-bosqich transformatsiya qilish modeli asoslandi.

Tadqiqotda sanoat korxonalarini an'anaviy boshqaruv tizimidan innovatsion boshqaruv tizimiga o'tkazishning uch bosqichli modeli (adaptatsiya — integratsiya — transformatsiya) ishlab chiqildi. Ushbu model xorijiy tajriba asosida milliy sharoitga moslashtirilgan.

4. Raqamli transformatsiya va innovatsion strategiya o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik mexanizmi tizimlashtirildi.

Muallif tomonidan raqamli texnologiyalarni joriy etish innovatsion strategiyaning tarkibiy elementi sifatida asoslandi hamda uning sanoat samaradorligiga ta'siri konseptual darajada izohlandi.

5. Sanoat korxonalarida innovatsion strategiyani boshqarishning institutsional mexanizmi taklif etildi.

Tadqiqot natijasida davlat siyosati, korporativ boshqaruv va ilmiy-ishlab chiqarish integratsiyasi o'rtasidagi o'zaro hamkorlik modeli ishlab chiqildi.

Muallif tahlillari asosida quyidagi xulosaga kelish mumkin: sanoat korxonalarida innovatsion strategiyani shakllantirish faqat texnologik yangilanish bilan emas, balki strategik rejalashtirish, inson kapitaliga investitsiyalar va ilmiy-ishlab chiqarish integratsiyasi bilan uzviy bog'liq bo'lishi lozim. Xorijiy tajriba shuni ko'rsatadiki, innovatsiyani tizimli boshqarish sanoat tarmog'ida uzoq muddatli barqaror o'sishni ta'minlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, sanoat korxonalarini boshqarishda innovatsion strategiyani rivojlantirish global raqobat sharoitida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi. Xalqaro statistik ma'lumotlar tahlili R&D investitsiyalari, texnologik yangilanish va sanoat samaradorligi o'rtasida bevosita bog'liqlik mavjudligini tasdiqlaydi. Innovatsion faollik darajasi yuqori bo'lgan davlatlarda sanoatning qo'shilgan qiymati, eksport salohiyati hamda mehnat unumdorligi sezilarli darajada yuqori ekanligi aniqlandi. Tadqiqot davomida innovatsion strategiyani alohida tashabbus sifatida emas, balki strategik boshqaruv tizimining ajralmas elementi sifatida shakllantirish zarurligi asoslab berildi. Innovatsion rivojlanish texnologik modernizatsiya bilan cheklanmay, inson kapitali, raqamli transformatsiya va ilmiy-ishlab chiqarish integratsiyasi bilan uzviy bog'liq bo'lgan kompleks jarayon ekanligi ko'rsatildi. Olingan natijalar asosida sanoat korxonalarida innovatsion strategiyani korporativ rivojlanish strategiyasiga integratsiya qilish, innovatsion maqsadlarni uzoq muddatli rejalashtirish hujjatlarida aniq ko'rsatkichlar asosida belgilash, R&D faoliyatini moliyaviy rag'batlantirish mexanizmlarini kuchaytirish, jumladan, soliq imtiyozlari, grantlar va davlat-xususi sheriklik dasturlarini kengaytirish orqali korxonalarning ilmiy izlanishlarga bo'lgan qiziqishini oshirish, inson kapitalini rivojlantirishga ustuvor e'tibor qaratish, raqamli transformatsiya jarayonlarini jadallashtirish hamda ilmiy muassasalar va sanoat korxonalarida o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish zarurligi asoslandi. Umuman olganda, innovatsion strategiyani tizimli va izchil boshqarish sanoat korxonalarining uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta'minlaydi, sanoatni modernizatsiya qilish jarayonida innovatsiyani markaziy boshqaruv omili sifatida qabul qilish esa milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

**FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR**

1. Schumpeter, J. A. (1934-yil). The Theory of Economic Development. Harvard University Press.
2. Porter, M. E. (1985-yil). Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance. Free Press.
3. Teece, D. J., Pisano, G., & Shuen, A. (1997-yil). Dynamic capabilities and strategic management. Strategic Management Journal, 18(7), 509–533. [https://doi.org/10.1002/\(SICI\)1097-0266\(199708\)18:7<509::AID-SMJ882>3.0.CO;2-Z](https://doi.org/10.1002/(SICI)1097-0266(199708)18:7<509::AID-SMJ882>3.0.CO;2-Z)
4. OECD. (2018-yil). Oslo Manual 2018: Guidelines for Collecting, Reporting and Using Data on Innovation (4-nashr). OECD Publishing. <https://doi.org/10.1787/9789264304604-en>
5. Drucker, P. F. (1985-yil). Innovation and Entrepreneurship: Practice and Principles. Harper & Row.
6. World Bank. (2023-yil). World Development Indicators. World Bank Data. <https://data.worldbank.org>
7. WIPO. (2023-yil). Global Innovation Index 2023. World Intellectual Property Organization.
8. UNIDO. (2022-yil). Industrial Development Report 2022. United Nations Industrial Development Organization.
9. UNESCO Institute for Statistics. (2023-yil). Research and Development (R&D) Data. <https://uis.unesco.org>

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100